



UDK: 82.09:801.73(575.1)

Barchin SHUKUROVA,
PhD, dotsent, Sarbon universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: barchin0511@gmail.com

O'zMU professori M.Kurbanova taqrizi asosida

THE RELATIONSHIP BETWEEN FORM AND CONTENT IN LITERARY TEXT

Annotation

This article examines the correlation between form and content in literary text, one of the oldest and still debated problems of literary theory. Drawing on the views of Eastern classical poetics as well as Russian and Western literary criticism, the article demonstrates that the unity of form and content is not a product of twentieth-century Western aesthetics alone, but has roots reaching back to the philosophical traditions of the Muslim East. The study compares literary and scientific text with regard to purpose, linguistic means, and logical structure, and shows how form serves as the vehicle through which the ideational-aesthetic content of a literary text is realized and perceived by the reader. It is concluded that the harmony between form and content determines the ontological and aesthetic value of a literary work, and that this correlation should be treated as an integrated object of analysis rather than two separate categories.

Key words: literary text, form, content, aesthetic unity, classical poetics, literary theory, scientific text, artistic style.

СООТНОШЕНИЕ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В статье рассматривается соотношение формы и содержания в художественном тексте – одна из старейших и до сих пор дискуссионных проблем литературоведения. Опираясь на положения восточной классической поэтики, а также русского и западного литературоведения, автор показывает, что единство формы и содержания не является исключительно продуктом западной эстетики XX века, а восходит к философским традициям мусульманского Востока. В статье проводится сопоставление художественного и научного текста по цели, языковым средствам и логической структуре, раскрывается роль формы как средства воплощения идейно-эстетического содержания. Делается вывод о том, что гармония формы и содержания определяет онтологическую и эстетическую ценность художественного произведения и должна рассматриваться как единый объект анализа.

Ключевые слова: художественный текст, форма, содержание, эстетическое единство, классическая поэтика, литературоведение, научный текст, художественный стиль.

BADIIY MATNDA SHAKL VA MAZMUN MUNOSABATI

Annotatsiya

Maqolada adabiyotshunoslikning eng qadimiy va hanuzgacha munozarali muammolaridan biri bo'lgan badiiy matnda shakl va mazmun munosabati masalasi tahlil qilinadi. Sharq mumtoz poetikasi, shuningdek, rus va G'arb adabiyotshunosligi qarashlariga tayangan holda shakl va mazmun birligi faqat XX asr G'arb estetikasining mahsuli emas, balki musulmon Sharqi falsafiy an'alaridan ildiz olgani asoslanadi. Maqolada badiiy va ilmiy matn maqsad, til vositalari hamda mantiqiy tuzilishi jihatidan qiyoslanib, shaklning badiiy matn mazmunini ifodalash va o'quvchi tomonidan idrok etilishidagi vazifasi ko'rsatiladi. Xulosa qilinadiki, shakl va mazmun uyg'unligi badiiy asarning ontologik va estetik qiymatini belgilaydi, shu boisdan ular ikki alohida kategoriya emas, balki yaxlit tahlil obyekti sifatida o'rganilishi lozim.

Kalit so'zlar: badiiy matn, shakl, mazmun, estetik birlik, mumtoz poetika, adabiyotshunoslik, ilmiy matn, badiiy uslub.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqaro adabiy anjuman ishtirokchilariga yo'llagan tabrik nutqida o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlagan edi [1]. Bunday vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, badiiy matnning ichki tabiatini – uning shakl va mazmun jihatlarini – chuqur ilmiy asosda anglashni taqozo etadi, zero faqat shakl-mazmun munosabatini to'g'ri idrok etgan tadqiqotchi, o'qituvchi yoxud tarjimon original asarning badiiy-estetik qimmatini to'liq saqlagan holda uni tahlil qilishi yoki boshqa tilga o'girishi mumkin.

Badiiy matnda shakl va mazmun munosabati muammosi adabiyotshunoslik tarixida eng qadimiy va shu bilan

birga hamon dolzarbligini yo'qotmagan masalalardan biridir. Mazmun asarning g'oyaviy-falsafiy, axloqiy-estetik Mundarijasini, shakl esa uning tildagi, obrazlardagi, kompozitsiya va ritmdagi ifodalanish tarzini bildiradi. Ushbu ikki kategoriya o'zaro ajralmas dialektik birlikda mavjud bo'lib, ularning uyg'unligi badiiy asarning yaxlitligi va estetik ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – badiiy matnda shakl va mazmun munosabatini Sharq mumtoz poetikasi hamda jahon adabiyotshunosligi qarashlari asosida yoritish, badiiy va ilmiy matnmi qiyosiy tahlil qilish orqali shaklning mazmunni ifodalashdagi funksional o'rini aniqlashdir. Bu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: shakl-mazmun muammosining nazariy negizlarini yoritish; badiiy va ilmiy matnmi qiyoslash; shakl-mazmun uyg'unligining badiiy matn ontologiyasidagi rolini asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matnning ichki mustahkamligi va mazmun-shakl birligi haqidagi fikrlar adabiyotshunoslikda turlicha talqin qilingan. S.Meli badiiy matnning bir vaqtning o'zida ham mustahkam tuzilma, ham dinamik ma'nolar manbai sifatida ta'riflab, unda biror so'z yoki belgining o'rnini almashtirish butun ma'no tizimini izdan chiqarishini ta'kidlaydi [2]. Bu qarash shaklning – so'z tanlovi, sintaktik qurilma, ritmik tashkilotning – mazmunni saqlab turuvchi asosiy vosita ekanini ko'rsatadi. A.Rasulov ham shu yo'nalishda fikr yuritib, haqiqiy badiiy matnning "pishiq-puxta to'qilgan mato"ga qiyoslaydi: matnning bir tolasi uzilsa, u yaroqsiz buyumga aylanganidek, badiiy matndagi biror unsharning tushib qolishi ham asar butunligiga putur yetkazadi[3].

Shakl va mazmun munosabatini yanada aniqroq ko'rsatuvchi yondashuvlardan biri badiiy va ilmiy matnning qiyoslashidir. Rus tilshunosi A.Fedorov ilmiy va badiiy matn mualliflarining maqsadlari tubdan farq qilishini asoslaydi: ilmiy matn muallifi aniq, mantiqiy va ikki xil talqinga yo'l qo'ymaydigan ifodani maqsad qilsa, badiiy matn muallifi o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etish, uning ruhiy olamini qamrab olishga intiladi [5]. Xuddi shunday fikrni Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida ilgari surgan: ilmiy asarlar sodda uslub bilan, adabiy-she'riy asarlar esa "xayol yordamida bezatilgan" uslubda yozilishini ta'kidlab, bu ikki uslub farqini mazmun-maqsaddan kelib chiquvchi tabiiy hodisa sifatida izohlaydi [6]. Demak, shaklning tanlanishi tasodifiy emas, balki bevosita matnning mazmuni va maqsadidan belgilanadi.

B.To'xliyev badiiy matndagi har bir so'z ustida ijodkorning jiddiy o'ylanishi natijasida o'quvchida muayyan emotsional-hissiy qo'zg'alish yuzaga kelishini yozadi [9], B.Korman esa badiiy matnning vazifasi shunchaki axborot berish emas, balki o'quvchi ongida jonli tasavvur hosil qilish ekanini ta'kidlaydi [10]. L.Vygotskiy ham badiiy idrok va yaratish jarayonlarini bitta so'zni idrok etish jarayoni bilan qiyoslab, shaklning (so'z, obraz) estetik ta'sir hosil qilishdagi psixologik mexanizmini ochib beradi [7]. Bu qarashlarning barchasi shaklni mazmundan ajralgan "bezak" sifatida emas, balki mazmunni voqelantiruvchi funksional vosita sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

D.Quronovning fikricha, badiiy asarning moddiy asosi bo'lmish matn faqat o'quvchi tomonidan o'qilgan, idrok etilgan taqdirdagina haqiqiy estetik hodisaga aylanadi; o'qilmagan matn – shunchaki qog'oz va harflar majmuidir [12]. Bu qarash shakl-mazmun munosabatini statik emas, balki kommunikativ-dinamik jarayon sifatida ko'rsatadi: shakl matnda 1-jadval

Ilmiy va badiiy matnda shakl-mazmun munosabatining qiyosiy ko'rsatkichlari

Parametr	Ilmiy matn	Badiiy matn
Maqsad	Aniq axborot berish, qonuniyatlarni isbotlash	O'quvchi hissiyotiga ta'sir etish, ruhiy olamni qamrab olish
Mantiqiy tuzilish	Qat'iy, bir ma'noli, ikki xil talqinga yo'l qo'ymaydi	Nisbiy, obrazlar va ramzlar orqali ochiladi
Til vositalari	Terminologik, neytral, aniqlik ustuvor	Metafora, epitet, ramz, ko'p ma'nolilik ustuvor
Shakl-mazmun aloqasi	Shakl mazmunni izchil bayon etish vositasi	Shakl mazmunning ajralmas ifodalanish shakli, mustaqil estetik qiymatga ega
Ta'sir mexanizmi	Aqliy-mantiqiy idrok	Hissiy-estetik idrok, katarsis

Manba: A.Fedorov [5] va Fitrat [6] asarlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ilmiy va badiiy matnning ajratib turuvchi asosiy chegara aynan shakl-mazmun munosabatining xarakterida yotadi: ilmiy matnda shakl mazmunni imkon qadar "shaffof" tarzda yetkazishga xizmat qilsa, badiiy matnda shakl mazmun bilan uyg'unlashib,

moddiylashgan bo'lsa-da, uning mazmuni faqat o'qish jarayonida – ijodkor va o'quvchi ongining tutashuv nuqtasida – voqe bo'ladi. Xuddi shunga yaqin fikrni U.Eko ham "ochiq matn" konsepsiyasida ilgari suradi: matn qanchalik "ochiq" bo'lmasin, u o'zining strukturaviy strategiyasi doirasida o'quvchi talqinini yo'naltirib turadi, ya'ni shakl mazmun talqinining chegaralarini belgilaydi [14].

Shakl-mazmun muammosini adabiyotshunos H.Boltaboyev faqat XX asr G'arb adabiyotshunosligi yoki Hegel falsafasi doirasida emas, balki ming yillar davomida musulmon Sharqida – Qur'oni Karimdan boshlangan islomiy-tasavvufiy falsafa taraqqiyoti va badiiy tafakkur tadriji bilan uzviy bog'liq holda shakllangan mukammal ilmiy tizim sifatida baholaydi [13]. Bu yondashuv shakl-mazmun muammosini universal, umumjahon adabiy-falsafiy tafakkurning tarkibiy qismi sifatida ko'rishga imkon beradi va uni faqat g'arbcha nazariy paradigma bilan cheklab qo'yishning ilmiy jihatdan yetarli emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, germeneytik-tahliliy hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Sharq mumtoz poetikasi manbalari (H.Boltaboyev tadqiqotlari asosida) bilan rus va G'arb adabiyotshunosligi (A.Fedorov, L.Vygotskiy, U.Eko, D.Quronov) qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, badiiy va ilmiy matnning qiyoslash metodidan foydalanilib, ularning maqsad, til vositalari va mantiqiy tuzilish jihatidan farqlari aniqlandi. Manba sifatida o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslikning nazariy asarlari, monografiyalari hamda ilmiy maqolalari tanlab olindi; tadqiqot obyekti sifatida ularda ilgari surilgan shakl-mazmun konsepsiyalari xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda shakl va mazmun bir-biridan ajralmas ikki tomon bo'lib, ularning munosabati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, mazmun shaklni belgilaydi – asarning g'oyaviy-hissiy vazifasi qanday til vositalari, obrazlar va kompozitsion yechim tanlanishini taqozo etadi; ikkinchidan, shakl mazmunni voqelantiradi – mazmun faqat muayyan shakl orqaligina o'quvchiga yetib boradi va estetik ta'sir hosil qiladi. Bu ikki jarayon badiiy matnda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi va ularni sun'iy ravishda ajratish matnning yaxlitligini buzadi.

Badiiy va ilmiy matnning qiyoslash bu munosabatni yaqqol ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda ikki matn turining asosiy parametrlar bo'yicha farqi umumlashtirilgan (A.Fedorov [5] va Fitrat [6] qarashlari asosida tuzildi):

mustaqil estetik qiymat kasb etadi. Shu bois badiiy matnning tahlil qilishda shaklni mazmundan ajratib, faqat "bezak" sifatida qarash metodologik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi.

H.Boltaboyev ta'kidlagan Sharq mumtoz poetikasidagi shakl (surat) va mazmun (ma'no) dialektikasi bugungi kun

adabiyotshunosligi uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega [13]. Ushbu an'anaga ko'ra, badiiy matnning "surat"i – uning tili, vazni, kompozitsiyasi – "ma'no"dan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi; ular bir-birini to'ldiruvchi, bir-birisiz mukammal bo'la olmaydigan ikki jihatdir. Bu qarash zamonaviy G'arb nazariyalaridagi shakl-mazmun uyg'unligi haqidagi xulosalar bilan tipologik yaqinlik kasb etadi, biroq o'zining tarixiy-falsafiy ildizlariga ega mustaqil ilmiy an'ana sifatida alohida qiymatga egadir.

Shakl va mazmun uyg'unligining amaliy natijasi badiiy matnning ontologik xususiyatida, ya'ni uning davrlar osha yashovchanligida namoyon bo'ladi. Mazmun jihatidan teran, biroq shakl jihatidan zaif asar o'quvchi ongida uzoq saqlanmaydi; aksincha, shakl jihatidan mukammal, biroq mazmunan sayoz asar ham chinakam badiiy qiymatga ega bo'la olmaydi. Demak, badiiy matnning "mangu yashovchanligi" aynan shakl va mazmunning uzviy uyg'unligidan kelib chiqadi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, badiiy matnda shakl va mazmun ikki mustaqil kategoriya emas, balki bir-birini taqozo etuvchi dialektik birlikdir. Mazmun shaklni belgilasa, shakl mazmunni

voqelantiradi va uni o'quvchiga yetkazadi. Bu munosabatning ildizlari faqat XX asr G'arb adabiyotshunosligi bilan emas, balki Sharq mumtoz poetikasining islomiy-tasavvufiy falsafiy an'analari bilan ham bog'liq bo'lib, bu jihat o'zbek adabiyotshunosligi uchun alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Badiiy va ilmiy matni qiyoslash shakl-mazmun munosabatining mohiyatini yanada aniq ko'rsatdi: ilmiy matnda shakl mazmunni shaffof tarzda yetkazish vositasi bo'lsa, badiiy matnda u mustaqil estetik qiymat kasb etadi. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida adabiyot nazariyasi va akademik yozuv fanlarini o'qitishda shakl va mazmunni ajralmas yaxlitlik sifatida o'rgatish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, o'zbek mumtoz va zamonaviy nasri namunalari tahlil qilishda Sharq mumtoz poetikasi hamda jahon adabiyotshunosligi metodlarini uyg'unlashtirgan qiyosiy yondashuvni qo'llash lozim; uchinchidan, badiiy tarjima amaliyotida asl nusxaning shakl-mazmun birligini saqlash maxsus metodik tavsiyalar asosida o'rgatilishi kerak. Mazkur yo'nalishlar kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik nutqi. – Toshkent, 2018 yil 7 avgust.
2. Meli S. Global talqin poetikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 47.
3. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 13.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 35.
5. Fedorov A.I. Obraznaya rech. – Novosibirsk: Nauka, 1985. – B. 11.
6. Fitrat (Abdurauf F.) Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 44.
7. Vygotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – Moskva: Iskustvo, 1986. – B. 39.
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari: risola / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: H. Axmedov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 4.
9. To'xliyev B. Badiiy asar tahlili va talqiniga oid ayrim mulohazalar. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – B. 215.
10. Korman B. Izuchenie teksta xudojestvennogo proizvedeniya. – Moskva: Prosveshenie, 1972. – B. 68-69.
11. Mar R.A., Oatley K. The function of fiction is the abstraction and simulation of social experience // Perspectives on Psychological Science, 2008.
12. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 118-119.
13. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. Surat (shakl) va ma'no munosabati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 84.
14. Eco U. The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. – Bloomington: Indiana University Press, 1979. – P. 9.
15. Baldick Ch. The Oxford Dictionary of Literary Terms. 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.